



SAMARQAND, NAVOIY VA BUXORO VILOYATLARI 1999–2014 YILLARDA TA'LIM MUASSASALARINING MODDIY-TEXNIK BAZASINI RIVOJLANTIRISH

Tuyev Fazliddin Erkinovich

Buxoro davlat Pedagogika institute dotsenti

E-mail: fazli1820bek@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida 1999–2014 yillar davomida akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va rivojlantirish yuzasidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Xususan, Navoiy va Buxoro viloyatlari misolida qurilish, rekonstruksiya va ta'mirlash ishlari, moliyalashtirish manbalari hamda davlat dasturlarining ijrosi tahlil etiladi. Maqola ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasini baholash va mavjud tendensiyalarni ko'rsatib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim islohotlari, moddiy-texnik baza, kasb-hunar kolleji, akademik litsey, umumta'lim maktabi, davlat dasturi, rekonstruksiya, investitsiya

Istiqlol yillarida O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Ta'lim tizimini zamonaviy talablarga moslashtirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta'lim muassasalarini zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash maqsadida bir qator milliy va mintaqaviy davlat dasturlari qabul qilindi. Xususan, 1999–2005 yillarga mo'ljallangan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini rivojlantirish dasturi, 2004–2009 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish dasturi, hamda har yili qabul qilinadigan Investitsiya dasturlari shular jumlasidandir. Ushbu maqolada ushbu dasturlar doirasida Navoiy va Buxoro viloyatlarida amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 23-sentabrdagi 406-sonli 1999-2005-yillarda akademik lisey va kasb-hunar kollejlarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish hamda mablag' bilan ta'minlash dasturi to'g'risidagi qarorining 5-bandi, 9-ilovasiga asosan "Qizilqumnodir metaloltin" davlat konserni o'z mablag'lari hmsobidan Navoiy viloyatida 2000-2005-yillar mobaynida 2 ta kasb-hunar kolleji qurib foydalanishga topshirgan edi[1].

Respublika "2004-2009 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida"gi Prezident Farmoni asosida respublikaning eng chekka qishloqlarida ham zamonaviy maktablar bunyod etildi. 2004-2009 yillarda 3 mln. Shu jumladan, 116640 o'quvchiga mo'ljallangan 351 ta yangi maktab binosi qurilgan, 850951 o'quvchiga mo'ljallangan 2470 ta maktab binosi mukammal ta'mirlangan. 2044582 o'quvchiga mo'ljallangan 3607 ta maktabning bino va inshootlari



mukammal hamda 2072 ta maktab joriy ta'mirdan chiqarilgan[2]. Viloyat o'rta maxsus kasb-hunar tizimida 2006-yilga qadar 14 ta kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, foydalanishga topshirilgan bo'lsa[3], 2008-yilda 8 ta kasb-hunar kollejlari, 1 ta yangi umumta'lim maktabi, 52 ta maktablar kapital rekonstruksiya qilingandi[4]. 2006-yil Buxoro viloyatida esa 5 ta kasb-hunar kolleji, 12 ta yangi maktab foydalanishga topshirilgandi. 11 ta maktab rekonstruksiya qilingandi, 17 tasi mukammal ta'mirlangandi[5]. 2008-yil viloyatida bir qator ijtimoiy soha ob'ektlari qurilib foydalanishga topshirilishi mo'ljallangan, jumladan 8250 o'quvchiga mo'ljallangan 11 ta kasb-hunar kollejlari, 2 ta yangi maktab, 21 ta maktab kapital qayta qurilishi, 25 ta maktab mukammal va 47 tamaktab joriy ta'mirlanishi bnlgilangandi[6]. Shundan, 2009-yil viloyatda yangi qurilish hisobidan 11 ta kasb-hunar kollejlari, 1 ta akademik litsey, kapital rekonstruksiya hisobidan 21 ta maktab qurilib foydalanishga topshirilgan[7].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 29-dekabrdagi PQ-1455-sopli "O'zbekiston Respublikasining 2011-yilgi Investitsiya dasturi to'grisida"gi qaroriga asosan 2011-yilda Buxoro viloyatida jami: 53 ta, shu jumladan 3 ta o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, namunaviy loyihalar asosida qishlok joylarda barpo etilayotgan massivlar uchun 4 ta umumta'lim maktablariga qo'shimcha binolar qurish, Buxoro shaxrida Toshkent Irrigatsiya va melioratsiya institutining Buxoro filiali binosi, 12 ta bolalar sportini rivojlantirish inshootlari, 8 ta xalq ta'limi inshootlarini qayta rekonstruksiya qilish va 11 tasini mukammal ta'mirlash rejalashtirilgan. Umumiy qurilish qiymati - 33,0 mlrd. so'm bo'lib, 2011-yilning yanvar-iyun holatida 13,5 mlrd. so'm (41 foiz) mablag' o'zlashtirildi. 2011-yil 1-iyul holatida 5 ta ijtimoiy ob'ektlar foydalanishga topshirilgandi[8]. 2014-yil Buxoro viloyatining mahalliy jamg'armasi hisobidan 153 ta umumta'lim, 56 ta akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini o'quv mebeli, o'quv laboratoriya jihozlari, sport anjomlari hamda kompyuter sinflaribilan jihozlash uchun qarib 7 mlrd. 888 mln. so'm mablag'lar ajratilgan[9].

Xullas, 1999–2014 yillar davomida O'zbekiston ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Navoiy va Buxoro viloyatlarida qator yangi maktablar va kasb-hunar kollejlari qurildi, mavjud muassasalar rekonstruksiya va ta'mirdan chiqarildi. Moliyalashtirishning davlat va mahalliy budjet hisobidan amalga oshirilgani, ta'lim muassasalarining jihozlanishiga alohida e'tibor qaratilgani ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, mazkur islohotlar ta'lim muassasalarining joylashuv jihatidan teng tartibda rivojlanishi va chekka hududlarda ham ta'limga teng sharoitlar yaratishga xizmat qildi. Kelgusida ushbu yo'nalishdagi ishlar izchil davom ettirilishi ta'lim sifatini yanada oshirishga zamin yaratadi.



Adabiyotlar

1. O'zbekiston Milliy Arxivi. M-15-fond, 1-ro'yxat, 1028-yig'ma jild, 92-93-varaqlar.
2. Jonixonov M. Maktabga e'tibor–kelajakka e'tibor. // Xalq so'zi. 2009-yil, 19-avgust, №-163.
3. Jumaniyozov R. Barxanlar bag'ridagi bo'ston. // Xalq so'zi. 2006-yil, 28-iyun, №-123.
4. Navoiy viloyat davlat arxivi, 100-fond, 1-ro'yxat, 928-yig'ma jild, 35-varaq
5. Buxoro viloyat davlat arxivi, 1459-fond, 1-ro'yxat, 671-yig'ma jild, 33-34-varaqlar.
6. Buxoro viloyat davlat arxivi, 1459-fond, 1-ro'yxat, 745-yig'ma jild, 238-239-varaqlar.
7. Buxoro viloyat davlat arxivi, 1459-fond, 1-ro'yxat, 793-yig'ma jild, 82-varaq.
8. Buxoro viloyat davlat arxivi, 1459-fond, 1-ro'yxat, 1047-yig'ma jild, 89-varaq.
9. Buxoro viloyat davlat arxivi, 1459-fond, 1-ro'yxat, 1071-yig'ma jild, 8-varaq.

